

## AFSONAVIY OBRAZLARNING INGLIZ ADABIYOTIDA EVOLYUTSIYASI

**Nurmatova Madina Toxir qizi**

Namangan davlat chet tillari instituti 3-kurs talabasi

Email: [nurmatovamadina69@gamil.com](mailto:nurmatovamadina69@gamil.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz adabiyotida afsonaviy obrazlarning shakli va mazmun jihatidan qanday evolyutsiyaga uchraganini o'rganadi. Fray, Yung va Kempbell kabi nazariyotchilarning arxetipal qarashlariga tayanib, qahramon, murabbiy, soyali kuch va ilohiy ayol obrazlarining tarixiy davrlar davomida qanday o'zgarib, har bir davrning madaniy, axloqiy va psixologik talablari asosida yangicha mazmun kasb etganini tahlil qiladi. "Beowulf", "The Faerie Queene", "Frankenstein", "The Lord of the Rings" va "Harry Potter" kabi asarlar asosida olib borilgan bu tadqiqot afsonaviy obrazlarning inson o'zligini anglash, axloqiy kurash va madaniy yodda saqlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Natijalar mifologiyaning adabiyotdagi o'rnini chuqurroq anglashga hissa qo'shadi hamda kamroq o'rganilgan matnlar va xalqaro mifologik paralellar bo'yicha yangi tadqiqotlar zarurligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** afsonaviy obrazlar, ingliz adabiyoti, arxetip, evolyutsiya, qahramon, soya, fantastika, madaniy o'zlik.

**Kirish.** Afsonaviy obrazlar adabiyotning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, u insoniyat ongidagi arxetipik timsollar orqali madaniyat, axloq va o'zlikni ifodalash vositasiga aylangan. Qadimgi davrlardan beri mifologiya adabiy ijodda chuqur ildiz otgan bo'lib, u orqali inson o'z dunyoqarashini, qo'rquv va umidlarini ifoda etib kelgan. **Fray (1957)** ta'kidlaganidek, "mif – bu adabiyotning asosiy ildizi" bo'lib, barcha janr va davrlar osha o'zgarib boruvchi obrazlar sistemasi hisoblanadi [5].

Ingliz adabiyotida afsonaviy obrazlarning shakli va mazmuni o'zgarib, davrlar ruhiga mos holda yangicha talqin etilib kelgan. Masalan, "Beowulf" *Beowulf* dostoni kuch va sadoqatni timsol qilgan bo'lsa, "Frankensteyn" (*Frankenstein*) asarida bu obrazlar zamonaviy ilmiy va axloqiy ziddiyatlar fonida yangicha ko'rinishga ega bo'ladi [2]. **Yung (1951)** nazariyasiga ko'ra, har bir davr afsonaviy obrazni o'z zamon psixologiyasiga moslab qayta yaratadi – bu esa adabiy evolyutsiyaning psixologik asosini tashkil etadi.

So'nggi o'n yilliklarda, xususan Tolkien va Rowling kabi yozuvchilarning asarlarida afsonaviy obrazlar postmodern talqinlarda yangi qiyofa kasb etdi. **Tolkien (1947)** fantastikani "balandroq san'at shakli" deb atab, uni xalqning o'z mifologiyasini yaratish vositasiga aylantirgan bo'lsa [12], **Rowling** zamonaviy axloqiy murakkabliklar va jamiyat tanqidini mifik obrazlar orqali yetkazdi [14].

Shunga ko'ra, ushbu maqola ingliz adabiyotida afsonaviy obrazlarning antik davrdan tortib to hozirgi zamon fantastikasigacha bo'lgan **evolyutsiyasini**, ularning **shakli va mazmun jihatdan o'zgarishini** tarixiy va arxetipal yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot ayniqsa, har bir davrda afsonaviy obrazlar qanday **madaniy, axloqiy va psixologik yuklama** olganini aniqlashga harakat qiladi.

**Adabiyotlar sharhi:** Afsonaviy obrazlarning evolyutsiyasi adabiyotshunoslar orasida keng ilmiy muhokamalarga sabab bo'lgan mavzulardan biridir. Tadqiqotchilar qadimgi miqlar va arxetiplarning ingliz adabiyotiga qanday ta'sir qilganini, ularning qanday shakllanib, vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarib borganini izchil o'rganib kelmoqdalar. Masalan, Tolkien (1936) o'zining "*Beowulf: Mahluqlar va tanqidchilar*" nomli mashhur maqolasida qadimgi dostonida aks etgan qahramonlik obrazlarini jamiyat axloqiy ideallarining ramzi sifatida tahlil qiladi [11]. Bu asar mifologik obrazlarga asoslangan adabiy tahlilga poydevor bo'lgan.

Hamilton (2011) tomonidan yozilgan "*Mifologiya: Xudolar va qahramonlar haqida abadiy rivoyatlar*" kitobi klassik mifologik qahramonlar va ularning G'arb adabiyotidagi talqinlarini keng qamrab oladi. Garchi asar faqat ingliz adabiyotiga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, undagi nazariy yondashuvlar ko'pincha ingliz adabiy matnlarini kontekstualizatsiya qilishda foydalaniladi. Rajabov (2020) esa yunon va rim mifologiyasining ingliz tili va adabiyotiga, ayniqsa leksik va madaniy nuqtai nazardan qanday ta'sir qilganini o'rganadi [8].

Psixologik va struktural yondashuv nuqtai nazaridan Frye (1957) o'zining "*Tanqid anatomiya*" asarida arxetiplar – qahramon, yo'l (sarguzasht), qurbon kabi universal adabiy shakllar haqida so'z yuritadi. [5]. Frayning tasnifi zamonaviy ingliz adabiyotidagi obrazlarni tahlil qilishda muhim nazariy asos hisoblanadi. Kook (2022) esa "*Frankensteyn*" (*Frankenstein*) asarida Prometey afsonasining zamonaviy talqinini tahlil qiladi va romantizm davridagi yozuvchilar mifologiyani qanday yangicha ma'noda qo'llaganini ochib beradi [4].

Zamonaviy tahlillar, masalan, Chense (2001) tomonidan yozilgan "*Tolkien san'ati: Angliyaga atalgan mifologiya*" asarida afsonaviy elementlarning milliy identitetni shakllantirishdagi roli o'rganiladi. Atteberi (1992) esa zamonaviy fantastik adabiyotda mifga asoslangan syujet strategiyalarini tahlil qiladi [1]. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, afsonaviy obrazlar va motivlar zamonaviy asarlarda ham muhim rol o'ynaydi – ular psixologik ziddiyatlar, axloqiy masalalar va ijtimoiy o'zgarishlarning ramziga aylangan.

Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda ingliz adabiyotidagi afsonaviy obrazlarning tarixiy davrlar kesimidagi o'zgarishini tizimli tarzda yoritgan tadqiqotlar kam uchraydi. Ko'pchilik manbalar faqat antik davr yoki zamonaviy talqinlarga alohida urg'u bergan. Mazkur tadqiqot ayni shu bo'shliqni to'ldirishni maqsad qilib, ingliz adabiyotidagi afsonaviy obrazlarning shakl va mazmun jihatidan o'zgarishini arxetipal nazariya hamda tarixiy-komparativ yondashuv asosida tahlil qiladi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqot sifat jihatdan tahliliy va qiyosiy yondashuvga asoslanadi hamda arxetipal nazariyaga tayangan holda olib boriladi. Tadqiqotda **Nortop Fray (1957)**, **Karl Yung (1959)** va **Josef Kempbell (1949)** kabi olimlarning arxetipal tuzilmalarga oid nazariyalari asos qilib olinadi. Bu asosda ingliz adabiyotida afsonaviy obrazlarning tarixiy davrlar bo'yicha qanday o'zgarib borganini kuzatish mumkin.

Tahlil uchun tanlangan asosiy matnlar ularning tarixiy va madaniy ahamiyatiga ko'ra saralangan: qadimgi davrda – *Beowulf* dostoni, Uyg'onish davrida – Edmund

Spenserning "The Faerie Queene" asari, romantizm davrida – Mery Shellyning "Frankenstein" (Frankensteyn) asari, zamonaviy fantastika doirasida esa – Tolkienning "The Lord of the Rings" trilogiyasi va Rovlingning "Garri Poter" (Harry Potter) romanlari.

Tahlil davomida asosiy arxetiplar – qahramon, murabbiy, soyali kuch, ilohiy ayol obrazlari aniqlanadi va ularning davrlar osha qanday o'zgarib borgan shakllari va funksiyalari o'rganiladi. Intertekstual aloqalar, tarixiy kontekst va ramziy ma'nolar asosiy e'tibor markazida bo'ladi.

Mazkur metodologiya ingliz adabiyotida afsonaviy obrazlarning jamiyat, din va falsafiy tafakkur o'zgarishlariga qanday javob bo'lganini chuqur tushunish imkonini beradi.

**Natijalar/Tahlil.** Qadimgi ingliz tilidagi *Beowulf* dostoni afsonaviy qahramonlik arxetipining eng sof namunasi sifatida namoyon bo'ladi. *Beowulf* obrazi jasorat, jismoniy kuch va sadoqatning madaniy timsolidir. Fray (1957) tomonidan ilgari surilgan qahramonlik mifologiyasi asosida *Beowulf* tashqi tahdidlar – Grendel, Grendelning onasi va ajdaho – bilan kurashuvchi ideal jangchi sifatida ko'riladi [5]. Bu maxluqlar Yung nazariyasidagi "soyali kuch" tushunchasiga mos tushadi – jamiyatdagi qo'rquv va bosilgan tajovuz ramzi. *Beowulf*ning jasorati xudolarga emas, balki qabila va avlod sha'niga tayangani tufayli, afsona orqali anglangan qahramonlik anglo-sakslar madaniy o'zligini ifodalaydi [7].

Spenserning "The Faerie Queene" asarida klassik mifologiya va xristian alegoriyasi murakkab tarzda birlashadi. Redcrosse Knight obrazi ruhiy tozalikka yetishish yo'lida harakat qiluvchi axloqiy-qahramon arxetipini ifodalaydi [10]. Bu sayohat Kempbellning "qahramon sayohati" modeliga mos tushadi. Gloriana – peri malikasi – esa ilohiy ayollik arxetipi yoki ideal hukmdor timsoli sifatida talqin qilinadi [2]. Bu obrazlar mif va siyosiy teologiyani uyg'unlashtirgan bo'lib, Elizabeth davridagi axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilgan. Shu orqali afsonaviy obrazlar jismoniy emas, ma'naviy g'alabani targ'ib qiluvchi didaktik vositaga aylanadi.

Mary Shelli "Frankenstein" asarida Prometey afsonasini yangicha talqinda keltirib, ma'rifatchilik davrining aqlparastlik va ilmiy haddan oshishiga tanqidiy yondashadi. Viktor Frankenstein – ilohiy chegaralarni buzib, insonga "olov" (ya'ni bilim) bergan Titan Prometey bilan qiyoslanadi [9]. Kook (2022) tahliliga ko'ra, mavjudot obrazi – insoniylik va jirkanchlik uyg'unligidagi yangi "qulab tushgan yaratiq" arxetipi sifatida maydonga chiqadi [4]. Bu obraz Kempbellda tasvirlangan "soyali qahramon" sifatida talqin qilinadi: rad etilgan, yolg'iz, jamoatdan ajralgan [2]. Bu davrda mifik obrazlar ogohlantiruvchi, fojiali mazmun kasb etadi – inson ichki ziddiyatlari bilan bog'lanadi.

Tolkien o'zining epik asarlari orqali qadimgi afsonaviy arxetiplarni zamonaviy axloqiy ramkaga moslashtiradi. Frodo – o'z ixtiyori bilan emas, majburiyat tufayli qahramonga aylanuvchi obraz – klassik jasoratli qahramondan farq qiladi. Gandalf – *donishmand murabbiy* arxetipi bo'lib, Merlinning yangicha shaklidir. Sauron esa Yung "soya" konsepsiyasiga mos keluvchi mutlaq yovuzlik – ko'rinmas, lekin buzuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Chense (2001)ga ko'ra, Tolkien

o‘z asarlari orqali “Angliya uchun mifologiya” yaratishga harakat qilgan. Bu obrazlarda mifik aniq ajratilgan – yaxshilik va yovuzlik aniq ko‘rsatiladi, axloqiy jasorat ulug‘lanadi [3].

J.K. Rowlingning "Garri Poter" (*Harry Potter*) romanlarida afsonaviy arxetiplar gibrid va demokratik tus oladi. Garri – “yetim qahramon” bo‘lib, klassik qahramonlik sayohatini boshdan kechiradi, lekin uni do‘stlari –Germiona (Hermione) va Ron – bilan birgalikda yengadi. Bu “jamoaviy qahramonlik” yondashuvidir. Dambldor (Dumbledore) – donishmand ustoz arxetipi bo‘lib, u insoniy kamchiliklar bilan uyg‘unlashgan. Voldemort esa Sauron arxetipining zamonaviy shakli – u yovuzlikning tashqi emas, ichki, ruhiy ildizini aks ettiradi [14]. Atteberi (1992) ga ko‘ra, postmodern fantastik adabiyot mif bilan haqiqat chegarasini buzadi. Rowling obrazlari ahloqiy murakkablik, ruhiy ziddiyat va jamiyatga tanqid orqali afsonaviy ramzlarning yangi qirralarini ko‘rsatadi.

**Muhokama.** Ushbu tadqiqot natijalari ingliz adabiyotidagi afsonaviy obrazlar qadimgi anglo-saks davridan tortib zamonaviy fantastik asarlargacha shakl va mazmun jihatidan chuqur o‘zgarishlarga uchraganini ko‘rsatadi. Bu evolyutsiya faqat adabiy uslubiy yo‘nalish emas, balki asrlar davomida yuz bergan madaniy, psixologik va falsafiy jarayonlarning ifodasidir.

Beovulf (*Beowulf*)da qahramon qabila sha‘nini ifodalovchi kuch va sadoqat timsoli bo‘lsa, "Frankensteyn" (*Frankenstein*) asarida mif insoniyatning zamonaviy qo‘rquvlariga – ilm, yolg‘izlik va ma’suliyatga aylandi [11]. Bu o‘zgarish Yung nazariyasidagi mifning davr psixologiyasiga moslashuvchanligiga mos keladi. Tadqiqot Fray(1957) ning arxetiplar doimiy, ammo moslashuvchan tuzilmalar ekanligi haqidagi g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Tolkiening "*The Lord of the Rings* " asaridagi aniq axloqiy qarama-qarshiliklar bilan ifodalangan miflar [13], Rowlingning Garri Poter(*Harry Potter*) romanlarida murakkab, axloqiy jihatdan ikki yoqlama obrazlarga aylangan [14]. Bu esa postmodern adabiyotga xos bo‘lgan “qarama-qarshiliklarni shubha ostiga olish” holatiga mos keladi. Rowlingning qahramon, murabbiy va soyali kuch arxetiplarini qayta talqin qilishi Atteberi ta’kidlaganidek, zamonaviy fantastikaning madaniy tanqidchi rolini tasdiqlaydi [1].

Mazkur tadqiqot Rajabov (2020) va Kook (2022) kabi mualliflarning oldingi ishlari ustiga qurilgan bo‘lib, ularning klassik yoki zamonaviy asarlarga doir alohida yondashuvlarini umumlashtiradi va tarixiy-komparativ yondashuv asosida butun bir evolyutsion zanjirni yoritadi

Shunga qaramay, ba’zi cheklovlar mavjud. Tahlil asosan kanonik, mashhur asarlarga asoslangan. Kelgusida kamroq o‘rganilgan matnlar, G‘arbga oid bo‘lmagan miflar yoki multimediyaviy talqinlar orqali mavzuni yanada kengaytirish mumkin. Shuningdek, afsonaviy obrazlarni feministik yoki postkolonial nazariya asosida tahlil qilish orqali obrazlar orqali hokimiyat va madaniy o‘zlik masalasini chuqurroq yoritish mumkin bo‘ladi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot ingliz adabiyotidagi afsonaviy obrazlarning evolyutsiyasini yoritib berdi – qadimgi epik dostonlardan tortib, postmodern fantastika asarlarigacha ularning shakli, mazmuni va vazifasidagi o‘zgarishlarni tahlil

qildi. *Beowulf*, *The Faerie Queene*, *Frankenstein*, *The Lord of the Rings* va *Harry Potter* kabi muhim asarlar asosida olib borilgan bu izlanish shuni ko'rsatdiki, afsonaviy obrazlar adabiy tasavvurda muhim o'rinni egallab kelmoqda – ularning roli esa har bir davrning psixologik, axloqiy va madaniy ehtiyojlariga mos ravishda o'zgaradi.

Yung, Fray va Kempbell nazariyalariga asoslanib, tadqiqot qahramon, murabbiy, soyali kuch va ilohiy ayol kabi asosiy arxetiplar asrlar davomida saqlanib qolganini, lekin ularning tasviri va hikoya ichidagi funksiyasi o'zgarib borganini ko'rsatdi. Dastlabki asarlarda tashqi qahramonlik va axloqiy aniq chiziqlar ustuvor bo'lgan bo'lsa, zamonaviy va postmodern asarlarda murakkablik, gibridlik va axloqiy noaniqlik asosiy o'rinni egallaydi.

Tarixiy va arxetipal yondashuv orqali davrlararo bog'liqlik yaratilgan bu maqola afsonaviy obrazlarning inson o'zligini anglash va ifodalashdagi davomiy ahamiyatini ko'rsatdi. Shuningdek, bu tadqiqot mashhur (kanonik) matnlar bilan cheklanganini tan oladi va kelajakda kamroq o'rganilgan asarlar, G'arbga oid bo'lmagan miqlar, hamda afsonalarning feministik va postkolonial talqinlari asosida chuqurroq izlanishlar olib borishni taklif etadi.

Oxir-oqibat, mifning bardavomligi va moslashuvchanligi uning adabiyotdagi markaziy o'rnini isbotlaydi – u o'tmishni hozirgi zamon bilan, afsonani hayot bilan, shaxsiy kurashni esa jamiyat timsoli bilan bog'laydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Attebery, B. (1992). *Strategies of fantasy*. Indiana University Press.
2. Campbell, J. (1949). *The hero with a thousand faces*. Princeton University Press.
3. Chance, J. (2001). *Tolkien's art: A mythology for England*. University Press of Kentucky.
4. Cook, D. (2022). Mary Shelley's *Frankenstein* and Milton's monstrous myth. In K. Berndt & A. Johns (Eds.), *Handbook of the British Novel in the Long Eighteenth Century* (pp. 539–556). De Gruyter. <https://doi.org/10.1515/9783110650440-031>
5. Frye, N. (1957). *Anatomy of criticism: Four essays*. Princeton University Press. <https://doi.org/10.1515/9781400866908>
6. Hamilton, E. (2011). *Mythology: Timeless tales of gods and heroes*. Grand Central Publishing.
7. Jung, C. G. (1951). *Aion: Researches into the phenomenology of the self* (Collected Works, Vol. 9, Part II). Princeton University Press.
8. Rajabov, B. (2020). Research on the value of Greek and Roman mythology to English language and literature. *Frontiers in Educational Research*, 3(5), 108–110. <https://doi.org/10.25236/FER.2020.030522>
9. Shelley, M. (1818). *Frankenstein; or, The modern Prometheus*. Lackington, Hughes, Harding, Mavor & Jones.
10. Spenser, E. (1590). *The Faerie Queene*. London: William Ponsonby.

11. Tolkien, J. R. R. (1936). *Beowulf: The monsters and the critics*. *Proceedings of the British Academy*, 22, 245–295.
12. Tolkien, J. R. R. (1947). *On fairy-stories*. In C. S. Lewis & J. R. R. Tolkien (Eds.), *Essays presented to Charles Williams*. Oxford University Press.
13. Tolkien, J. R. R. (1954–1955). *The Lord of the Rings* (Vols. 1–3). George Allen & Unwin.
14. Rowling, J. K. (1997–2007). *Harry Potter Series* (7 vols.). Bloomsbury Publishing.